



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

SON KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZM VA PAREMIYALAR
TARJIMASIDA EKVIVALENTLIK MASALASI.
(O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA)

Nematjanova Dilafruz Olim qizi

Namangan davlat universiteti stajyor o'qituvchisi

nematjanova1988@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola tarjimada ekvivalentlik masalalarini o'rganishga bag'ishlangan. Unda, asosan, frazeologik birliklar va paremiyalarning tarjimasida yuzaga keladigan ma'noviy, madaniy, strukturaviy va konnotativ ekvivalentlik muammolari ko'rib chiqilgan. Maqola mualliflari ayrim ingliz va o'zbek maqollari, shuningdek, badiiy matnlardagi o'ziga xos iboralar tarjimasini tahlil qilganlar

Kalit so'zlar: Ekvivalentlik muammolari, Mazmuniy ekvivalentlik, Madaniy ekvivalentlik, Strukturaviy ekvivalentlik, Konnotativ ekvivalentlik, Tarjima usullari, O'zbek va ingliz maqollari, Tarjima tahlili, Frazeologik transformatsiya, Madaniyatlararo tarjima, Son komponentli iboralar, Badiiy matn tarjimasini.

ПРОБЛЕМА ЭКВИВАЛЕНТНОСТИ В ПЕРЕВОДЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ
И ПОСЛОВИЦ С ЧИСЛОВЫМ КОМПОНЕНТОМ.
(НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ)

Нематжанова Дилафруз Олим кизи

*Стажёр-преподаватель Наманганского
государственного университета*

Аннотация. Настоящая статья посвящена изучению вопросов эквивалентности в переводе. Основное внимание уделено проблемам смысловой, культурной, структурной и коннотативной эквивалентности при переводе фразеологических единиц и паремий. Автор статьи анализирует перевод некоторых английских и узбекских пословиц, а также уникальных выражений из художественных текстов.

Ключевые слова: Проблемы эквивалентности, Семантическая эквивалентность, Культурная эквивалентность, Структурная эквивалентность, Коннотативная эквивалентность, Методы перевода, Узбекские и английские пословицы, Анализ перевода, Фразеологическая трансформация, Межкультурный перевод, Фразеологизмы с числовым компонентом, Перевод художественного текста





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

THE ISSUE OF EQUIVALENCE IN TRANSLATING
PHRASEOLOGICAL UNITS AND PROVERBS WITH NUMERICAL
COMPONENTS (BASED ON UZBEK AND ENGLISH EXAMPLES)

Nematjanova Dilafruz Olim qizi

Trainee Lecturer at Namangan State University

Abstract. *This article is dedicated to studying the issues of equivalence in translation. It primarily focuses on the challenges of semantic, cultural, structural, and connotative equivalence in translating phraseological units and proverbs. The author analyzes the translation of certain English and Uzbek proverbs, as well as unique expressions from literary texts.*

Key words: *Equivalence Issues, Semantic Equivalence, Cultural Equivalence, Structural Equivalence, Connotative Equivalence, Translation Methods, Uzbek and English Proverbs, Translation Analysis, Phraseological Transformation, Cross-Cultural Translation, Numerical Component Phrases, Literary Text Translation*

Kirish

Ma'naviy, madaniy, strukturaviy va konnotativekvivalentlik masalalarini ko'rib chiqqan holda son komponentli frazeologizm va paremiyalar tarjimasida mazkur ekvivalentlik masalalarini bir necha badiiy asarlar orqali tahlilga tortamiz.

Son komponentli o'zbekcha frazeologik birikmalar va maqollarni ingliz tiliga tarjima qilishda **ma'naviy, madaniy, strukturaviy va konnotativ ekvivalentlik** masalalari ko'plab qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu sharh bir necha badiiy asar matnlari va ularning inglizcha tarjimalari tahlili orqali ushbu ekvivalentlik muammolarini ko'rib chiqadi.

Adabiyotlar tahlili

Maqolada ishlatilgan badiiy asarlar "Shum bola", "O'tkan kunlar" va ularning tarjimalari "Naughty Boy", "The Days Gone By" o'zbek va ingliz tillari orasidagi tarjima jarayonidagi ekvivalentlik masalalarini ko'rsatishga xizmat qiladi. Har bir misol o'z manbasiga to'g'ri havola bilan bog'langan, bu ilmiy izchillik va dalillarning ishonchligini ta'minlaydi. O'zbekcha badiiy matnlardan olingan frazeologik birliklar, ular o'z madaniy o'ziga xosliklarini aks ettiradi. Tarjimalar ingliz tilidagi madaniy muhitga moslashtirilgan yoki ba'zi hollarda moslashtirilmay, leksik transformatsiya usullari bilan cheklangan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqola o'zbek va ingliz tillaridagi son komponentli frazeologik birliklar va paremiologik birliklarning tarjima jarayonida ekvivalentlik masalalarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat: O'zbek badiiy matnlaridagi son komponentli frazeologik va paremiologik birliklar. Ularning ingliz tiliga





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tarjimasi. Tarjima jarayonidagi ekvivalentlik turlari: mazmuniy, madaniy, strukturaviy va konnotativ ekvivalentlik.

Tahlil va natijalar

“Bu ko‘chmanchi elatning asli turar joyi bu yerdan *yuzlab chaqirim* narida, dashtning ichki tomonida qolgan edi”. [1]

This nomad people’s residence had been left in the desert which was *one hundred kilometres away* [2] bo‘lib, unda bir nechta kamchiliklar uchraydi.

Aniqroq aytadigan bo‘lsak, jumalardagi ajratib ko‘rsatilgan birikmalarda birgina xato bilan na madaniy, na ma’naviy na strukturaviy ekvivalentlik uchramaydi. Fikrimizni isboti uchun bir nechta omillarni sanab o‘tamiz. “yuzlab chaqirim” — bu taxminiy o‘lchov hisoblanib, o‘zbeklarda keng qo‘llaniladi. Ammo ingliz madaniyatida aynan shu so‘zni muqobili mavjud, ya’ni “hundreds of kilometres away”. Tarjimon foydalangan “one hundred kilometres away” aniq sonni beradi va u hech qanday ibora bo‘la olmaydi. Shu bilan birga, o‘z-o‘zidan ma’naviy muqobillik ham yoqoladi hamda buning natijasida grammatik jihatdan ham ekvivalent emas. Lekin konnotativ ma’no aks etgan bo‘lib, unda masofani uzoqliligini va ulkan hududni anglash mumkin.

“Xullasi, *ming xil* hayollarga bordim. Eng oxiri: “Ha, endi besh-olti oydan buyonku dom-daraksiz, sanqib yuribman. Nima, mahalladagilar tirik yurganimni bilishadi. Ular ham, men ham *qirqqa chidagan, qirq biriga* ham chidab qolarmiz”. Bari bir kelgusi haftagacha Hoji boboning tarbiyasida qolmoqchi emasman”. “At last: “Yes, I have walked for five or six months”. People from our village knew that I was alive. They and I also endured forty one. I’m not going to stay at Haji bobo’s education, then I will spend my completed moneys for them and go”. O‘zbeklardagi “ming hayollarga bordim” jumlasini madaniyatga hos ibora hisoblanadi va ichki kechinmalarni bildiradi. Lekin tarjimada bu xususiyat yoqolib, uning o‘rniga shunchaki “at last” birikmasi bilan soddalashtirilgan. Bundan tashqari, konnotativlik ham bir muncha o‘z ta’sirini yoqotgan, chunki “ming hil hayol” bu chuqur hissiy tuyg‘uni bildiradi, lekin bu ruhiy tushkunlikni inglizcha variantidan olishimiz qiyin. Bizning fikrimizga ko‘ra, “*I was lost in thoughts*” [3] iborasi madaniy ekvivalentlikni bera oladi. Mazkur misoldagi “qirqqa chidagan qirq biriga ham chidab...” maqoli ko‘plab hayotiy sinovlardan o‘tishni va yana biroz muddat bardosh qilishni anglatadi va bu ham o‘zbek madaniyatidagi kundalik turmushda tez-tez uchrab turadigan mashhur maqollardan. Tarjimon “They and I also endured forty one” jumlasidan foydalanib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qiligan va bu bilan ma’nodagi metaforik boylikni yoqotgan. Ingliz tilida “*We endured many hardship and could endure even more*” iborasi ma’naviy, madaniy hamda konnotativ ekvivalent bo‘la olardi. Garchand sonlar tarjimada uchramasa ham.

Xulosa

Maqolada o‘zbek tilidagi son komponentli frazeologik va paremiologik birliklarning ingliz tiliga tarjimasida yuzaga keladigan ekvivalentlik masalalari tahlil qilindi. Frazeologik birliklarning tarjima jarayonida mazmuniy, madaniy, konnotativ va





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

strukturaviy ekvivalentlik tamoyillarining qanchalik saqlanishi ko'rib chiqildi. Mazmuniy ekvivalentlik ko'p hollarda saqlangan bo'lsa-da, tarjimon tomonidan ba'zan umumlashtirish yoki qisqartirish usullari qo'llanilgan. Madaniy ekvivalentlik ayrim holatlarda e'tibordan chetda qolgan, o'zbek madaniyatiga xos iboralar ingliz madaniyatida mos alternativaga ega bo'lmagan. Konnotativ ekvivalentlikni saqlashda ba'zi hissiy ohanglar yo'qolgan bo'lib, buning o'rniga neytral ifodalar ishlatilgan. Strukturaviy ekvivalentlik ko'p hollarda grammatik qonuniyatlarga muvofiq bo'lsa-da, ba'zan metaforik ma'noni to'liq aks ettira olmagan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Фулом, Ф. Шум бола. – Тошкент: Янги аср авлоди. – 2011. – Б. 35
2. То'xtasinov, М., Yo'ldoshev, R. *Naughty boy*. Toshkent: Yangi asr avlodi. – 2017. – B. 28
3. [Lost in thought - Idioms by The Free Dictionary](#)

